


## “ALPOMISH” DOSTONIDA TAQIQLARNING MIFOLOGIK ASOSLARI

*Zebiniso Axmedova Jumaqulovna, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), Navoiy davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti*



[https://orcid.org/  
0009-0002-3034-3920](https://orcid.org/0009-0002-3034-3920)

*e-mail:*  
[axmedovazebiniso2022@  
gmail.com](mailto:axmedovazebiniso2022@gmail.com)

## MYTHOLOGICAL BASIS OF PROHIBITIONS IN THE EPIC “ALPOMISH”

*Axmedova Zebiniso Jumakulovna, doctor of philosophy in  
philological sciences (PhD), Associate Professor of the Department  
of Uzbek Language and Literature, Navoi State Pedagogical  
Institute*

## МИФОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЗАПРЕТОВ В ЭПОСЕ “АЛПОМИШ”

*Ахмедова Зебинисо Джумакуловна, доктор философии по  
филологическим наукам (PhD), доцент кафедры узбекского  
языка и литературы Навоийского государственного  
педагогического института*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada taqiqlarning mifologik asoslari haqida so'z boradi. “Alpomish” dostonida mavjud bo'lgan qushlar bilan bog'liq taqiqning qadimiyatga borib taqaluvchi tarixiy ildizlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** taqiq, tabu, mifologiya, ibtidoiy jamiyat, totem, qushlar, yovvoyi g'oz.

**Abstract:** This article examines the mythological basis of prohibitions. The historical roots of the ban on birds in the epic “Alpomish” are analyzed.

**Key words:** prohibitions, taboos, mythology, primitive society, totem, birds, wild goose.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается мифологическая основа запретов. Анализируются исторические корни запрета на птиц в эпосе «Алпомиш».

**Ключевые слова:** запреты, табу, мифология, первобытное общество, тотем, птицы, дикий гусь.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Taqiqlarning mifologik asoslari juda qadimiyatga borib taqaladi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'z aqlini tanigandan boshlab axloqiy normalarni tartibga solishga harakat qilgan. Ammo, eng avvalo paydo bo'lgan taqiqlarga tabiat, hayvonlar va qushlar bilan bog'liq hodisalar asos qilib olingan. Shu sababli ham islom dini kirib kelgunga qadar yaratilgan taqiqlar tabiat jismlari, jonzotlari va koinot yoritqichlari bilan bog'liq. Insoniyatning ilk tasavvurlari natijasida paydo bo'lgan bu tabular o'z mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'lingan. Avval tabiat hodisalari bilan bog'liq taqiqlar yaratilgan bo'lsa, keyinchalik ko'pxudolik va tangrichilik bilan aloqador tabular yuzaga kelgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Folklorshunos olimi G.Gaysina islom dini kirib kelgunga qadar yaratilgan boshqird taqiqlarini bir necha turlarga ajratadi: osmon yoritqichlari bilan bog'liq taqiqlar (quyosh, oy, yulduzlar), mifologik personajlar bilan bog'liq taqiqlar (yalmog'iz, dev, pari), tabiat unsurlari bilan bog'liq taqiqlar (yer, suv, olov, havo), totem tabular (muqaddas sanalgan hayvonlar va qushlar)[1;54]. Har bir taqiq turida o'ziga xos xatti-harakatlar yashiringan bo'lib, bu qadimgi insoniyatning tafakkur tarzi va dunyoqarashi bilan bog'liq. Biz ushbu maqolada totemlar bilan bog'lik tabularning ayrim jihatlarini tahlil etishga harakat qilamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, totem

tabular ikki turga ajratildi: hayvonlar bilan bog‘liq taqiqlar va qushlar bilan bog‘liq tabular.

Ibtidoiy jamoa davridan boshlab kishilar bilan hayvonlar toifasi o‘rtasida yaqinlik, qarindoshlik bor degan tushuncha mavjud bo‘lgan. Ayrim urug‘larning paydo bo‘lishini hayvonlar bilan bog‘lashgan. Totemizm odamning hayvon, o‘simlik va jonsiz narsa bilan aloqasi borligi haqidagi e‘tiqod sanalgan. “Totemni o‘ldirish, yeyish mumkin emas, chunki u qabilani himoya qiluvchi deb tushunilgan”[2]. Totemga nisbatan berilgan bu tabularga odamlar qat‘iy rioya qilganlar.

Qadimgi mifologik tasavvurlarga ko‘ra ayiq, bo‘ri, bug‘u, ilon, ot, echki, qo‘y, ho‘kiz, burgut kabi jonivorlar muqaddas totem hisoblangan. Ayiq totemi yoqut, oltoylik, turkiy qavmlar orasida yuzaga kelgan. Oltoyliklar o‘zini ayiqdan tarqalgan deb hisoblashgan [3]. Ayniqsa, turkiy xalqlarda ot, qo‘y, echki, qoramol totemlashtirildi. Hattoki, ular muqaddaslashtirilib, ularning pirlariga atab qurbonliklar ham qilindi. “Chorvadorlar fikricha, har bir hayvonning o‘ziga xos piri bo‘lgan va yilda bir marta mazkur pirga bag‘ishlab qurbonliklar qilingan. Qo‘y piri – Cho‘ponota, qoramol piri Zangiota, otning piri Qambarota, echkining piri – Chig‘atota bo‘lgan [4]. Demak, bundan ko‘rinadiki, totem sifatida muqaddaslashtirilgan hayvonlarning keyinchalik homiylari ham yuzaga kelgan. Olim A.Ashirovning yozishicha, o‘zbeklar orasida ot, sigir, qo‘y va tuyani oyoq bilan tepish ham qadimdan og‘ir gunoh sanalgan. Totem hayvonlarga zarar yetkazish taqiqlangani sababli, hozirgi kunda ham ularga do‘stona munosabatda bo‘lish ongimizga singib qolgan. Masalan, xalqimizda ot muqaddas jonivor hisoblanadi. Uni urish kishiga zarar keltiradi deb hisoblashadi. Go‘yoki, otning devi bo‘lib, jonivorga zarar yetgazganda ot eslab qoladi va, albatta, o‘chini oladi deb o‘ylashadi. Shu sababli ham, folklor asarlarida ot insonning eng qadrdon do‘sti sanaladi va qahramonni kulfatlardan omon saqlaydi. Shuningdek, qushlar bilan bog‘liq taqiqlar ham nihoyatda ko‘p uchraydi. Musicha, kabutar, qaldirg‘och, oqqush kabi qushlar hozir ham muqaddas sanaladi. Qarg‘a qadimgi ertaklarda ham xabarchi, yomonlik elchisi bo‘lsa, burgut, lochin, laylak, turna ezgulik timsoli bo‘lib keladi. Ammo, qadimiy e‘tiqodlarga ko‘ra, oqqush, turna, laylak, kabutar, yovvoyi g‘ozni otish ta‘qiqlangan.

Go‘yoki, kabutarda parilarning joni bor emish. Shu sababli ham ertaklarda parilar kaptar suratida namoyon bo‘ladi. Bu qushlarni otish insonga kulfat keltiradi, baxtsizlik sodir bo‘ladi deb hisoblashgan. Boshqird xalqlarida ham qushlar bilan bog‘liq totemlarda shunday ta‘qiqlar mavjud: “Oqqushni, turnani, yovvoyi g‘ozni otib bo‘lmaydi, qarg‘aydi, baxtsizlik keltiradi” [1;54].

## MUHOKAMA/OBSUYJDEHIE/DISCUSSION

O‘zbek xalq dostonlaridan eng mashhuri bo‘lgan “Alpomish” dostonida ham mana shu totem taqiqlar bilan bog‘liq qarashlar mavjudki, bu hodisa dostonning qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Alpomish Qalmoq elida zindonda yotganida bir kuni qarasa yaralangan yovvoyi g‘oz qanotlarini yozib, aylanib turibdi:

“Ey, jonivor Qo‘ng‘irot eldan keldingmi,  
Humoyunday menga soya soldingmi,  
Tor zindonda mendan xabar oldingmi,  
Qarindoshdan elchi bo‘lib keldingmi?  
Oh tortsam to‘kilar ko‘zimning yoshi,  
Ilohim qurisin podsholar ishi,  
Kajga aylangan shum falakning gardishi,  
Zindonni aynalgan g‘oyibning qushi....  
Davlatli xon endi shunday qaradi,  
Yolg‘iz g‘ozni u yaqinda ko‘radi...  
O‘zin kelib g‘oz zindonga tashladi.” [5;204]

Nega aynan g‘oz? Agar qadimiy mifologiyaga murojaat qilsak, g‘oz haqidagi qarashlar eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Misr mifologiyasida yovvoyi g‘oz – quyosh ramzi bo‘lgan. Ba‘zan, Quyosh xudosi Amonning muqaddas qushi sifatida e‘zozlangan. Yunon mifologiyasida esa samo ilohasi Geraning atributi, Apollon xudosining simvoli. G‘ozlar oqqushlarga tenglashtirilgan. Chunki, g‘ozlar ham sevgi, sadoqat, baxt, hushyorlik, ozodlik va ma‘rifat timsoli sifatida e‘zozlangan. Rimni ham g‘ozlarning qag‘illashi gallar hujumidan xabardor etgan. Rossiyaning shimolida g‘oz rasmini uylarga chizish ularni kulfatdan asraydi deb tushunilgan.

Aslida qahramon qiyin vaziyatlarga tushganda yordam beruvchi homiy kuchlardan madad so‘raydi. Bunday vaziyatda dostonida yolg‘iz g‘ozning paydo bo‘lishi ham qiziqarli holat. Ayniqsa, g‘ozning Humoyunday ( Xumo qushi, Xumoy) kelishi, zindonni aylanishi, g‘oyibning qushi sifatida talqin etilishida ham muqaddaslik mavjud. Balki, g‘oz

timsoli g'oyibning qushi, ruhlar dunyosidan xabar-chi sifatida tasvirlangandir. Alpomish qarasa o'q tegib g'ozning bir oyog'i singan, bir qanoti mayib bo'lgan. Bu g'ozni Shakaman tog'ida bir kampirning o'g'li otgan bo'lib, g'oz yarador bo'lib yiqilmay ketganiga yigit ko'ksini yerga berib yotgan edi. Yarador g'ozni Alpomish davolab, qanotiga xat bog'lab qayta uchiradi. G'oz Shakaman tog'iga charchab qo'nganda, o'g'lining g'ozni otib qo'yishidan qo'rqqan kampir onasi g'ozni qochirib yuboradi.

Podsholarning qatnab yurar elchisi,

Elchilarning bo'lar ekan tilchisi.

Bu yolg'iz g'oz Alpomish arzachisi,

Qo'ygin bolam, arzachiga o'lim yo'q...

Falak urib sening guling so'lmasin,

Bekning arzachisi bunda o'lmasin...

Qanday bo'lsa yolg'iz g'ozni o'ldirma,

Bu ishingni qo'zim yaxshi bilmagin..

Qo'ygin bolam yolg'iz g'ozga bormagin...[5;207]

Agar matnga e'tibor bersak, yolg'iz g'ozni otish taqiqligini, kulfat keltirishini anglaymiz. Ayniqsa, yolg'iz g'ozni otish qadimgi mifologik qarashlarga ko'ra baxtsizlik olib keladi deb tushunilgan. Yoqut xalqlarida g'oz qushlar xudosi, teleut xalqlarida shomonning yordamchisi sifatida aks ettirilgan. Ma'lumki, shomonlar g'ayb olami bilan muloqotga kiruvchilar deb hisoblangan. Bundan ko'rinadiki, ruhlar olamiga aloqador bo'lganligi sababli muqaddas sanaladi. Hattoki, qadimiy e'tiqodlarga ko'ra, ikki olam o'rtasidagi vositachi sifatida ertaklarda ham tasvirlangan. K.Imomov "O'zbek xalq nasri poetikasi" kitobida qadimgi mifologik ritual-marosimlardan biri "initsiatsiya"da balog'at yoshiga yetgan bo'z o'g'lon - o'smirning urug'-qabila tartiblarini buza boshlashi (ya'ni tabu-taqiqni buzishi) haqidagi fikrlari mavjud. Initsiatsiya-o'smirning balog'at yoshiga yetib erkak qatoriga o'tish davrida qatnashishi shart bo'lgan diniy marosim hisoblangan. Mifologik tushunchaga ko'ra, taqiqni buzgan o'lgan, ritual marosimda qatnashgach qayta tirilgan, tug'ilgan sanalishi taqiqning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Marosim zaminida ham shomon va o'smir o'rtasidagi taqiqni buzish holati dostonida yillar o'tishi bilan transformatsiyaga uchrab, balki kampir va o'g'li munosabatlari orqali aks ettirilgan bo'lsa ajab emas. Shomonning vazifasi o'smirni falokatdan qutqarib qolish. Dostonida esa

kampirning maqsadi xat olib ketayotgan g'oyibning qushi sanalgan - g'ozni qutqarish. Chunki, kampir o'smirni qarg'ishdan asraydi. Masalan, "G'ozlar-oqqushlar" nomli rus xalq ertagida ukasi Ivanushka -bu initsiatsiya-sinovdan o'tuvchi o'smir timsoli bo'lsa, opasi Alyonushka -unga yordam beruvchi ruhoni - shomon ramzidir. Ertakdagi yalmog'izning yordamchilari g'ozlar esa, o'liklar va tiriklar dunyosi o'rtasidagi ruh tashuvchilaridir. Ya'ni ruhlar dunyosi vakillari sifatida ramziy ma'no tashiydi. Ammo, keyinchalik yolg'izni g'ozni otish taqiqi kengaytirilib, dostonida bu g'oz Alpomishning arzachisi, uning ko'makchisi sifatida kampir tomonidan himoya qilinadi. Go'yoki, uni otish baxtsizlik keltiradi. Bu motiv dostonning qadimiyligini va davrlar o'tishi bilan uning funksiyasi biroz o'zgarishlarga uchraganligini anglatadi. Folklor janrlari tarkibidagi taqiqlarni o'rganish insoniyat taraqqiyoti davomida yaratilgan qadimiy e'tiqodlarning o'tmish zamonlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamiyatga xos bunday taqiqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarida uchrashi bu asarlarning qadimiyligini bildiradi. Chunki, totemizm va animizm bilan bog'liq taqiqlar bag'rida ham xalqimizning tarixi va o'tmishi bilan aloqador e'tiqodlar, marosimlar va qadriyatlar yashiringan.

#### **XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION).**

Xulosa sifatida shuni aytish muhimki, totem hisoblangan g'oz timsoli tahlili orqali taqiqlarning folklor asarlari strukturasi shakllanishida muhim funksiyani bajarganligini anglash mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Гайсина Ф.Ф. Запреты как фольклорный жанр в традиционной культуре башкир: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казан., 2013. –Стр 54.
2. Жалолов Ф.Ўзбек фольклориди жанрлараро муносабат. Тошкент, "Фан" нашриёти, 1979. 13-бет.
3. Потапов А.П. Пережитки культ медведя у алтайских турук // Этнограф-исследователь. – Л., 1928. – №2-3. – С.7.
4. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007, 149-бет.
5. Алпомиш. Тошкент, Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985. 204-бет.